

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

«QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA AQLLI BOSHQARUV VA RAQAMLI YECHIMLAR» MAVZUSIDA

RESPUBLIKA ILMIY - AMALIY KONFERENSIYA



2026-YIL 8-APREL

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

«QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA AQLLI BOSHQARUV VA RAQAMLI YECHIMLAR» MAVZUSIDA

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi 11-sonli buyrug‘ining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan 2026-yilga respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnikaviy tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash maqsadida 2026-yilning 8-aprel kuni Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan **«Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida aqlli boshqaruv va raqamli yechimlar»** mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkaziladi.

Anjuman Raqamli va Sun‘iy Intellekt (AI) texnologiyalari, Aniq dehqonchilik va resurslarni boshqarish, agrotexnik jarayonlarni monitoring qilish, Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyalari, logistika va ta’minot zanjirlarini optimallashtirish, Aqlli qishloq xo‘jaligi mashinalari va robototexnika, avtonom traktorlar, dronlar yordamida monitoring qilish, Agrobiznes, iqtisodiyot va raqamli transformatsiya jarayonlari, raqamli ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va raqamli qishloq xo‘jaligining barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi.

Anjuman maqsadi – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida aqlli boshqaruv tizimlari va raqamli texnologiyalarni joriy etish, “Aqlli qishloq xo‘jaligi” konsepsiyasini amalga oshirish orqali tarmoqni raqamli transformatsiya qilish, qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ilg‘or yechimlarni ishlab chiqish hamda ilmiy-amaliy hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Anjumanning ishchi tillari: o‘zbek, rus, ingliz.

Anjumanning asosiy ilmiy yo‘nalishlari:

1-sho‘ba. “Qishloq xo‘jaligida raqamli transformatsiya: sun‘iy intellekt asosida yechimlar va barqaror rivojlanish strategiyalari”

2-sho‘ba. “Intellectual qishloq xo‘jaligi texnikasida energiya samaradorligi va “yashil” texnologiyalarni qo‘llash (agrodronlar, avtonom texnika va robotlashtirilgan tizimlar)”

3-sho‘ba. “Qishloq xo‘jaligida intellektual tizimlar va texnologiyalar: Dehqonchilik, chorvachilik va maxsulotlarni qayta ishlashda raqamli yechimlar”

4-sho‘ba. “Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy jarayonlarni raqamli boshqarish, Raqamli infratuzilma va uning iqtisodiyotga ta’siri”

Anjumanda ishtirok etish talablari:

1. Anjumanda ishtirok etish uchun materiallarni anjumanning Tashkiliy qo‘mitasi elektron manziliga **2026-yilning 3-aprel sanasiga qadar** yuborish talab etiladi.

Anjumanda ishtirok etish uchun tugallangan ilmiy-tadqiqot ishlari asosida o‘zbek, ingliz va rus tillarida ravon yozilgan va quyida ko‘rsatilgan talablarga mos keladigan maqolalar qabul qilinadi.

Ilmiy maqolalar OAK jurnali maxsus sonida nashr qilinadi va har bir muallifga elektron holda (PDF) jurnal hamda sertifikat taqdim etiladi.

Taqdim etiladigan materiallar Microsoft Word redaktorida, **Telegram messendjeri** orqali yuboriladi:

1,4 -sho‘balar uchun ma’sul Yusupova Feruza	+998 (94) 680-08-78
2,3 - sho‘balar uchun ma’sul Maxmurov Bekzod	+998 93 879 94 94
To‘lov uchun: Plastik karta raqami:	
Plastik raqami -	5614 6803 0713 0423 (Maxkampulatov Salohiddin).

(To 'lov kvitansiya nusxasi sho 'balar uchun ma'sullar telegramiga yuboriladi).

Materiallarni rasmiylashtirish talablari:

- ✓ Taqdim etilgan materiallar original va konferensiyaning yo'nalishlariga mos bo'lishi tezis yoki maqolalarda o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot natijalari keltirilgan bo'lishi zarur;
- ✓ maqolalar taqdim etilgan namuna bo'yicha va talablarga qat'iy amal qilgan holda rasmiylashtirilishi kerak;
 - ✓ maqolalar o'zbek, ingliz va rus tillarida ravon yozilgan bo'lishi kerak (xato va g'aliz tarjima qilingan maqolalar chetlashtiriladi);
 - ✓ materiallar 4-6 betdan oshmasligi, qog'oz o'lchami A4 formatda bo'lishi, betlar raqamlanmasligi kerak;
 - ✓ materiallar Microsoft Word dasturida Times New Roman (**barcha tildagi maqolalar uchun**) 12 o'lchamli shriftda rasmiylashtiriladi, qatorlar 1,0 interval oraliqda, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm va o'ngdan 1,5 sm qoldirilishi lozim;
 - ✓ birinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflarda maqola yoki tezisning nomi, ikkinchi qatorda muallifning ismi-sharifi to'liq kursiv, markazlashtirilgan, ilmiy darajasi, unvoni, ish joyi, lavozimi, telefon raqami va elektron manzili ko'rsatiladi;
 - ✓ tezis va maqolalarni rasmiylashtirish namunasi (**1-ilova**) berilgan;
 - ✓ taqdim etilgan materiallarda mavzuning dolzarbligi, o'rganilganligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, tadqiqot uslublari, natijalar tahlili va xulosalari ifodalanishi shart;
 - ✓ mualliflar tezis va maqolalarda bayon etgan ma'lumotlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi va metodologik jihatlari uchun mas'ul;
 - ✓ Maqola va tezislar "Antiplagiat" dasturi orqali tekshiriladi, matnning haqiqiyliги 65% kam bo'lmasligi kerak.
 - ✓ talablarga javob bermaydigan holda rasmiylashtirilgan va belgilangan muddatdan kechikib yuborilgan materiallar qabul qilinmaydi.

Maqolaga ilova sifatida quyidagilar berilsin

1. Sho'ba raqami va nomi
2. Familiyasi, ismi, otasining ismi (to'liq)
3. O'qish yoki ish joyi (lavozimi)
4. Telegram va elektron manzili (e-mail), to'plamni yuborish uchun.
5. Konferensiyada ishtirok etish shakli (oflayn, onlayn). (**2-ilova**)

Materiallarni qabul qilish muddati: 2026-yil 3-aprelga qadar qabul qilinadi.

Konferensiya o'tkaziladigan kun: **2026-yil 8-aprel soat 10-00**. Konferensiyada bevosita va masofadan ishtirok etish mumkin.

Konferensiya o'tkaziladigan joy manzili: 230101. Toshkent viloyati, Qubray tumani, Universiteti ko'chasi 2-uy

Materiallar mualliflar tahriri bo'yicha chop qilinadi.

Bitta maqolani chop qilish (elektron ko'rinishdagi to'plam va maqola sertifikatini bilan birgalikda) 250.000 so'm.

Konferensiya koordinatorlari:

Nurilla Noraliyev Xaydaraliyevich,

+998 (99) 887 74 69 (telegram), E-mail: nurnoralihaydar1964@gmail.com

Mirzaxodjayev Sherzodxuja Shoxruxovich,

+998 (94) 476 47 51 (telegram), E-mail: sherzodxuja.mirzaxodjayev@mail.ru

Konferensiya kotiblari:

Yusupova Feruza Erkinovna, E-mail: feruzayusupova007@gmail.com

Tel.: +998 94 680 08 78 (telegram mavjud)

Maxmurov Bekzod Baxtiyor o'g'li E-mail: bekzodmaxmurov90@gmail.com

Tel.: +998 93 879 94 94 (telegram mavjud)

UO'T: 004 . 093**Maqolalarni rasmiylashtirish bo'yicha****NAMUNA****«Qishloq xo'jaligida Sun'iy intellekt orqali optimal va tezkor echimlar»**

Eshboeva N.F t.f.b.f.d., (PhD)

TDAU ning Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrası assistenti

e-mail: nodirafxriddinovna272@gmail.com

Annotatsiya (o'zbek, rus va ingliz tillarida).

Kalit so'zlar (o'zbek, rus va ingliz tillarida).

Kirish (adabiyotlar sharhi).

Materiallar va uslublar.

Tadqiqot natijalari.

Xulosa va tavsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

2-ilova

NAMUNA**«Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida aqlli boshqaruv va raqamli yechimlar» mavzusida respublika ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumanda ishtirok etish uchun****TALABNOMA**

Sho'ba raqami va nomi	
Familiyasi, ismi, otasining ismi (to'liq)	
O'qish yoki ish joyi (lavozimi)	
Telegram va elektron manzili (e-mail), to'plamni yuborish uchun.	
Anjumanda ishtirok etish shakli (onlayn, oflayn).	